

ALISHER NAVOIY IJODIDA RIYOKOR SHAYXLAR TANQIDI

Shahnoza Choriyeva

Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19641421>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning riyokor shayxlarga munosabati yoritib berilgan. Bunda obyekt sifatida shoirning "Hayrat ul-abror" dostoni hamda "Xazoyin ul-maoniy" devonidagi ba'zi bir g'azallari tanlab olingan. Ular orqali riyokor shayxlar qiyofasi va haqiqiy shayxlarga xos xususiyatlar ochib berilgan.

Kalit so'z: obraz, riyokor shayx, xonaqoh, dayr piri, mayxona.

КРИТИКА ЛИЦЕМЕРНЫХ ШЕЙХОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. В данной статье освещается отношение Алишер Навои к лицемерным шейхам. В качестве объекта исследования выбраны поэма «Хайрат ул-аброр» и некоторые газели из дивана «Хазоин ул-маоний». На их основе раскрываются образы лицемерных шейхов, а также особенности, присущие истинным шейхам.

Ключевое слово: образ, Лицемерный шейх, ханака, пир дайра, винный дом (майхана).

CRITICISM OF HYPOCRITICAL SHEIKHS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Abstract. This article examines the attitude of Alisher Navoi toward hypocritical sheikhs. The object of the study includes the poem "Hayrat ul-abror" and selected ghazals from the divan "Khazoyin ul-maoniy". Based on these works, the image of hypocritical sheikhs is revealed, along with the characteristics inherent to true sheikhs.

Key word: image, hypocritical sheikh, khanakah, pir of the tavern, tavern (wine house)

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi bo'lmish Alisher Navoiy ijodida obrazlar tizimi xilma-xildir. Bular orasida shayx obrazi ham alohida ahamiyatga ega obraz hisoblanadi.

Navoiy asarlarida shayx obrazi ikki xil mazmunda qo'llangan. Birinchisi, tasavvuf yo'lidagi piri komil, ilohiy ishqqa yetishish yo'lida solikka rahnamolik qiluvchi, uni "ishqi ilohiy" sirlaridan voqif etuvchi murshid qiyofasida, ikkinchisi tashqi ko'rinishi darveshnamo bo'lsada, qalbi Alloh ishqidan benasib bo'lgan, egniga xirqa kiyib xonaqohda zikr aytib o'tiradigan va bu orqali davlat rahbarlari hamda mansabdor shaxslar e'tiboriga, iltifotiga sazovor bo'lib boylik orttirishni maqsad qilgan riyokor shayxlar qiyofasida gavdalanadi. Mutafakkir shoir birinchi toifa shayxlarga yuksak ehtirom ko'rsatib ularning xulq-atvori, karomatlarini alohida e'tirof etsa, ikkinchi toifa shayxlarni qattiq tanqid ostiga oladi.

Riyokor shayxlar talqinini Navoiy dostonlarida ("Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr") shuningdek, nasri ("Mahbub ul-qulub") va lirikasida ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, "Hayrat ul-abror" dostonining 4-maqolati "Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida" deb nomlanib, unda Navoiy "qalloblik bilan janda kiyib olgan shayx" ning xonaqohda "shom-u sahar zikr aytib, g'avg'o qilishi", qo'lidagi "xiyla uyining ustuni" bo'lgan hassasi, "buttarosh but yo'nayotganida chiqindilardan uning donalarini yasagan" tasbehi uning xudojo'yligidan emas, balki barcha amali xiyla-nayrang, riyodan iborat bo'lib, u olib boradigan yo'l esa "to'g'ri do'zax o'tiga" [1,44-45] olib borishi ifodalangan.

Yuqoridagi fikrlarni Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi "Xonaqohda halqayi zikr ichra g'avg'o qildi shayx" deb boshlanuvchi 112-g'azalida ham ko'rishimiz mumkin:

Xonaqohda xalqayi zikr ichra g'avg'o qildi shayx,
Ahli dillar naqdi avqotini yag'mo qildi shayx.
Ul biri dom erdi, bu bir dona el saydi uchun,
Har qachonkim azmi tasbihi musallo qildi shayx. [2,133]

Bayt mazmuni quyidagicha: Xonaqohda xalqayi zikr paytida shayx shovqin ko'tardi va bu ishi bilan ahli dillar ya'ni shayxga murid tushganlarning "naqdi avqotini" (umrini) "yag'mo" (talon-taroj) qildi. Bu yerda zikrdan maqsad Haqqa yetishish emas, balki "Ularning hammasining maqsadi – katta amaldorlar shayxning va xonaqohning bu ahvolini ko'rsa, shayxning pirlarga xos namozxonligini, uning muridlarining ham zikrini, o'z vazifasiga amal qilishini bilib, ularning faqirlik va qanoat orqali bu martabaga erishib, Xudo ishq va mutasavvuflik holatidan bahramand bo'lganlarini kuzatsa. Shundan keyin ularning hammasini avliyo deb hisoblab, ularning so'fiylik holiga kirib, o'zidan ketishlarini ham chin deb o'ylab shayx oldida yalinib-yolborib, kamchiliklarining chorasini ko'rsalar. Ish oxir shunga borsaki, mamlakat podshosi va lashkarboshisi ham xabar topib, ko'p duolar qilib, iltimos bilan unga murid bo'lsa, martabasini doim ko'tarib tursa. Unga hadyalar, tuhfarlar tortsa, mol ham bersa, g'allakor yer, kent va suyurg'ol bag'ishlasa. Shunday narsalar bilan bahramand bo'lsa, shundagina ularning nafs o'rom, shodlik topadi".[1,45] Bu g'azal boshdan-oxir riyokor shayxlarni fosh qilishga bag'ishlangan bo'lib, shoir keyingi baytlarda shayxni el saydi(elni ovlash) uchun qo'yilgan dom(tuzoq) ekanligini, xayoli bang(nasha) da yoki xonaqohda bo'lgani holda go'yo o'zini bir maqom-u karomati bordek tutishi, parivashlarni o'ziga rom etish uchun faryod chekib o'zini devonalardek ko'rsatishi, to'q bo'lgani holda o'zini ro'za deb ko'p nodonlarni shaydo qilishi va o'zidanda nodonroq muridlarni tarbiyalashini qattiq tanqid qiladi

Diniy manbalarda, shuningdek, tasavvufda ham riyokorlik qattiq qoralangan. Riyo so'zi "o'zini yomonliklardan saqlangan qilib ko'rsatish, munofiq, ikkiyuzlamachi", - degan ma'noni bildiradi. Alisher Navoiy ham zohiran o'zini barcha yomonliklardan xoli qilib ko'rsatib, botini fisq-u fasodga, chirkinliklarga to'la bo'lgan, amallari Alloh rizosi, Haq ishqiga yetishish uchun emas, balki ta'magirlik, munofiqlik va ikkiyuzlamachilikdan iborat bo'lgan "soxta" shayxlarni riyokor deb ataydi va ulardan uzoqroq yurishga intiladi. "Navodir ush-shabob" ming 420-g'azalida shunday deyilgan:

Riyoyi xonaqohg'a kelmasam ey shayx, tut ma'zur
Ki, gom urg'on soyi ul yon keyinrak sirilur gomim[3,425]

Baytda Navoiy shayxga murojaat qilib: "Ey shayx, agar men riyoyi xonaqohga kelmasam, meni ma'zur tut, negaki u (xonaqoh) tomonga qadam bosganim sayin qadamim orqaga qarab ketyapti". Ya'ni Navoiy xonaqohga kelmaslikda meni aybim yo'q, chunki oyoqlarim menga bo'ysunmayapti, xonaqohga qarab qadam bossam odimlarim oldinlash o'rniga orqaga qarab ketyapti, deydi. Shoir xonaqohga kelishni butun vujudi bilan istamaydi. Uning uchun xonaqohdan ko'ra mayxonada bo'lish ko'proq zavq bag'ishlaydi.

Tasavvufda "may"– ilohiy ishq timsoli, "mayxona" esa Alloh ishqidan mast bo'lgan oshiqlar yig'iladigan joydir. Shuningdek, tasavvufda zohidlik va oriflik tushunchalari ham mavjud.

Zohid deganda bu dunyo ne'matlaridan voz kechib, tarkidunyo qilgan, tun-u kun ibodat bilan, Alloh zikri bilan mashg'ul bo'lgan va bu amallari orqali jannatdan umidvor bo'lgan insonlar nazarda tutiladi. Orif "...Allohn tanigan, bilgan va ilohiy ma'rifatdan mukammal xabardor bo'lgan solikdir"[8] Orif uchun esa jannat-u do'zaxga kirishining ahamiyati yo'q. U Alloh vasliga yetishsa bo'lgani. Navoiy oriflardan hisoblanib, zohidlarning ibodati jannatga kirish ilinjida bo'lgani uchun ularda ham ta'magirlik, riyokorlik alomatlar bor, deb hisoblaydi.

"Favoyid ul-kibar"ning 626-g'azalida shunday bayt mavjud:

Zuhd ahli riyosidin o'lubmen, agar, ey shayx,

Ihyo tilasang, boshla meni maykada sori.[5,632]

Ihyo "tiriltirish", degani, maykada "mayxona" ma'nosida. Navoiy aytmoqchiki: "Agar men zuhd ahlining riyosidan o'lsam, ey shayx sen meni tiriltirishni istasang maykada (mayxonaga) tomon olib bor. Bilamizki, shayx tariqat peshvosi ham hisoblanib, muridlar unga qo'l berib, unga ergashishadi. Mayxonada haqiqiy oshiqlar ya'ni "ahli siddiqlar" yig'ilishadi. Shayx– soqiy timsolida go'yo soliklarga may (ishq) quyib beradi, ularga ilohiy ishq sirlarini o'rgatib Haqqa yetishishlarida bir vosita– piri komil vazifasini bajaradi. Navoiy yuqoridagi baytda shuni nazarda tutganki: "Agar Navoiy riyokor zuhd ahliga qo'shilib, haqiqiy ishqdan benasib qolgan bo'lsa (zuhd ahli riyosidan o'lubmen), shayx uni to'g'ri yo'lga yo'naltirishni("tiriltirishni") istasa, ilohiy ishqdan mast bo'lgan soliklar davrasiga("maykada"ga) boshlab borishi kerak.

Alisher Navoiy g'azallarini to'g'ri tahlil qilishda tasavvufdan ham xabardor bo'lish talab etiladi. Sababi, ba'zi tushunchalar haqiqiy ma'nosida islomiy e'tiqod nuqtai nazariga ko'ra kufr hisoblanadi, ammo tasavvufiy she'riyatda o'zgacha ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, "dayr" so'zi majusiy otashparastlar ibodatxonasi, "dayr piri" yoki "piri mug'on" esa butxona boshlig'i (tasavvufiy mazmunda "piri komil, haqiqiy shayx") hisoblanadi va dayr piriga qo'l berib, unga murid tushish musulmonchilikda qoralanadi, ammo tasavvufiy mazmunda "dayr piri" yoki "piri mug'on" Haqqa yetishish yo'lida ba'zi bir "riyokor shayx"lardan ustun turadi. Alisher Navoiy "Badoye' ul-vasat" ning 73-g'azalida kelgan ushbu baytda ham "xonaqoh shayxi" maydan (ilohiy ishqdan) man etgani uchun, u "dayr piri"ga yuzlanadi:

Xonaqah shayxi ushatti sog'arin, ey piri dayr,

Sen karomat ko'rguzub, rag'mig'a tavbamni ushot.[4,78]

Sog'ar – may ichiladigan idish (tasavvufda ko'ngil timsoli) demakdir. Navoiy dayr piriga murojaat qilib: "Xonaqoh shayxi qadahni sindirdi (ushatti), ey dayr piri, sen esa karomat ko'rsatib buning aksini qilib meni tavbamni ushot (sindir). Garchi shayx qadahni sindirib uni maydan (ishqdan) qaytarmoqchi bo'lgan ekan, u esa bu yo'ldan (Alloh ishqiga yetishish yo'lidan) qaytmaydi, aksincha o'ziga ustozlik qilish uchun "dayr piri" (haqiqiy shayx)ga yuzlanadi.

Navoiyning boshqa bir g'azalida shayx uni "rasvo" deb, eshigidan kirgizmay haydab yuboradi, ammo u bundan xafa bo'lmaydi aksincha shukr qiladiki, Allohning afv-u rahmat eshigi masdud (band, to'silgan) emas:

Shayx agar yopti Navoiyga eshik, rasvo debon,

Shukr erurkim, afvu rahmat eshiki masdud emas.[5,243]

Dayr pirining huzuriga borib, may ichib mast bo'lgan va mayxo'rga aylangan shoirni shayx "rasvo" deb ataydi va unga eshigini yopadi. Ammo shoir bundan ranjimaydi, chunki u ilohiy ishq(may) dan mast bo'lib, shayxning eshigidan ham baland martabaga erishdi ya'ni uning uchun

Allohning rahmat eshigi hamisha ochiqdir. Negaki u dayr piringing dargohida bo'lgan. "Bu dargohda ulashiladigan bodaning mastligi solikni taqvo, islom, aql, zuhd kabi tushunchalardan xalos qiladi. Buning natijasida solik rasvolikka– har qanday ta'nayu dashnomlarga parvo qilmaydigan malomatiy orif martabasiga yetadi".[6, 140-141]

Tasavvufda shayxlik baland martaba bo'lishi bilan bir qatorda katta mas'uliyat hamdir.

Chinakam shayxlik martabasiga erishish biroz mushkul ish, ammo kimki o'z nafsini yengib, tariqat bosqichlaridan sabr bilan o'tib, ilohiy ilmlardan bahramand bo'lib, soliklarga yo'l ko'rsatuvchi haqiqiy murshid darajasiga yetsa uning Alloh huzuridagi martabasi ham ulug' bo'ladi.

Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoniy" asarida: "Agar shayxlik ruknlari nechta, deb so'rasalar, yettita deb aytgil. Birinchidan, shayx komil ma'rifat egasi bo'lsin, ya'ni o'zini tanigan bo'lsin. Ikkinchidan, o'tkir farosatli, odamshunos kishi bo'lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg'ay olsin. Uchinchidan, yetuk ruhiy-ma'naviy quvvati bo'lsin, toki murid (tariqat yo'lidan adashsa), unga ma'naviy madad berib, mushkulini oson qilolsin, to'g'ri yo'lga solsin. To'rtinchidan, yetarli darajada erkin odam bo'lsin, ya'ni hech narsaga muhtojligi bo'lmasin.

Beshinchidan, ixlosi mustahkam bo'lib, riyo va tamani tark etsin, mol va mansab deb bировga sarg'aymasin, egilmasin. Oltinchidan, rostlik va beg'araz do'stlikni shior qilsin – haq so'zni har yerda, har qanday sharoitda ayta olsin, gapirganda ikkiyuzlamachilik qilmasin.

Yettinchidan, qalbida shafqat nuri porlab tursin, murid manfaatini va umum manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ysin"[7,35], – deydi.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rishimiz mumkinki, chinakam shayx riyodan, yolg'ondan pok bo'lib, ilohiy ma'rifat egasi bo'lishi lozim ekan. Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonidagi "Meni ishqdin man etar soda shayx..." deb boshlanuvchi g'azalining sakkizinchi bayti quyidagicha:

Irodattin o'lg'ay edim bandasi,

Agar topsam erdi bir ozoda shayx[3,117]

Bu baytda shoir aytmoqchiki: "Agar bir ozoda (pokiza) shayx topsam edi, butun irodatimni uning ixtiyoriga topshirib, uning sodiq quli (bandasi) bo'lar edim". Ya'ni Navoiy o'ziga ustozlik qiluvchi mukammal iymon hamda pok ishq sohibi bo'lgan bir murshidi komil izlaydi. Agar riyoyu ta'magirlikdan xoli bo'lgan shayxni topa olsa, shoir unga ixlos ko'rsatib, butun irodatini uning ixtiyoriga topshirishga ham tayyordir. Tasavvufda shunday tushuncha mavjudki, unga ko'ra tariqat yo'lga kirgan solik pirga "qo'l berishi", o'zining barcha orzu-istaklarini unutishi va shayxning irodasini o'zining irodasi deb bilishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy ijodida hech bir obraz shunchaki keltirilmaydi.

Har bir obraz o'ziga xos vazifa bajaradi. Chunonchi, shoir asarlarida "riyokor shayx" larni keltirishdan maqsadi barcha shayxlarni yomon deb qoralash emas, balki u tariqat yo'lga kirgan muridlarni "riyokor shayxlar" domiga ilinib aldanib qolmasdan, ularga ilohiy ishq sirlarini o'rgatishda haqiqiy ustoz bo'la oladigan komil iymon, pokiza qalb sohibi bo'lgan "ozoda" shayxni topishlari va ularning rahnamoligida maqsadiga erishishlari lozimligini uqtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni).www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Alisher Navoiy.To'la asarlar to'plami. 10 jildlik: 1-jild.- Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011.

3. Alisher Navoiy.To'la asarlar to'plami.10 jildlik: 2-jild.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
4. Alisher Navoiy.To'la asarlar to'plami. 10 jildlik: 3-jild.- Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
5. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik: 4-jild.- Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
6. Alisher Razzoqov.Alisher Navoiy she'riyatida tasavvufiy obrazlar poetikasi. Monografiya. Toshkent: Bookmany print, 2025.
7. Husayn Voiz Koshifiy.Futuvvatnomai sultoni. Axloqi muhsiniy.T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashri, 2011y.
8. Jabborov SH. Haq odamlari//Ma'naviy hayot, 2024. 4-son.